**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI YURIDIK KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

# “KONSTITUTSIYAVIY BILIMLARNI OSHIRISH”

o‘quv kursi bo‘yicha

## O‘QUV DASTURI

*(qisqa muddatli o‘quv kursi)*

**2025-yil**

## I. TASHKILIY-USLUBIY BO‘LIM

| **1.1. Kursning maqsadi** |
|---|
| O‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2024-yil 26-sentabrdagi 319-um-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan 2024-2025-yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi ijrosini ta’minlash yuzasidan nazorat-rejaning 42-bandi ijrosini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan.<br>O‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 19-martdagi “**O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi 171-son qarori talablariga mos keladi. |
| **1.2. Kutilayotgan natijalar** |
| Tinglovchilar:<br>- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini jamiyatda va barcha huquq sohalarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri hamda bevosita qo‘llash amaliyoti;<br>-so‘nggi yillarda O‘zbekistonda o‘tkazilayotgan konstitutsiyaviy islohotlarning mazmun-mohiyati bo ‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarini oshiradilar. |
| **1.3. O‘qitish shakli** |
| ishdan ajralgan yoki ishdan ajralmagan holda. |
| **1.4. Tinglovchilar kontingenti** |
| Davlat organlari va tashkilotlari xodimlari |

## II. O‘QUV KURSINING MAVZULAR REJASI

| **2.1.** | **O‘quv kursining umumiy va o‘quv ishlari turi bo‘yicha hajmi:**<br>O‘quv kursini o‘rganish uchun–**4 soat** ajratilgan.<br>Auditoriya mashg‘ulotlari: ma’ruza– 2 soat, seminar–2 soat. | | | |
|---|---|---|---|---|
| **2.2.** | **O‘quv kursining mavzular rejasi** | | | |
| **T/r** | **Mavzular nomi** | **Mashg‘ulotlarga ajratilgan soatlar** | | |
| | | Ma’ruza | Seminar | Jami |
| **1** | O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini jamiyatda va barcha huquq sohalarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri hamda bevosita qo‘llash amaliyoti. | 2 | – | **2** |
| **2** | So‘nggi yillarda O‘zbekistonda o‘tkazilayotgan konstitutsiyaviy islohotlarning mazmun-mohiyati. | – | 2 | **2** |
| | **Jami:** | 2 | **2** | **4** |

## III. O‘QUV MATERIALINING MAZMUNI

| **1-mavzu:O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini jamiyatda va barcha huquq sohalarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri hamda bevosita qo‘llash amaliyoti.** |
|---|
| ***Asosiy masalalar:*** O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini jamiyatda va barcha huquq sohalarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri hamda bevosita qo‘llash amaliyoti. Konstitutsiyaning huquqiy asos sifatidagi o‘rni. Konstitutsiyani to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llashdagi muammolar. |
| **2-mavzu:So‘nggi yillarda O‘zbekistonda o‘tkazilayotgan konstitutsiyaviy islohotlarning mazmun-mohiyati.** |

| |
|---|
| ***Asosiy masalalar:*** Konstitutsiyaviy islohotlarning umumiy maqsad va tamoyillari. Islohotlarning huquqiy asoslari va jarayoni. Asosiy o‘zgarishlar va yangiliklar. Konstitutsiyaviy islohotlarning ijtimoiy va siyosiy ahamiyati. |

## IV. O‘QUV KURSINING O‘QUV-USLUBIY TA’MINOTI

| **Tavsiya etiladigan normativ-huquqiy hujjatlar** |
|---|
| O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi<br>O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuni.<br>O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuni.<br>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF–5618-son “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni.<br>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. |

**Izoh:**

1. Malaka oshirish kurslarining aniq vaqti va o‘qitish shakllari *(ana’naviy, masofaviy-onlayn - zoom ilovasi orqali va buyurtmachi joylashgan binoda)* buyurtmachi tashkilot bilan kelishilgan holda belgilanadi.

**2.** Buyurtmachi tashkilotlar taqsimot-rejaga o‘quv kursi muddati va xodimlar soni bo‘yicha tegishli o‘zgartirish kiritish huquqiga ega, bu to‘g‘risida o‘quv mashg‘ulotlari boshlanishdan kamida 5 kun oldin xabar berilishi kerak.

3. Malaka oshirish kurslarini muvaffaqiyatli tamomlagan tinglovchilarga belgilangan namunadagi sertifikat beriladi.